



“QAQ Nus QANOTIDAGI UMR” QISSASIDA PARANORMALLIK

Saydazimova Sanobar Samar qizi

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

saidazimova2595@gmail.com

+99899 175 15 33

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10727254>

ARTICLE INFO

Received: 20th February 2024

Accepted: 27th February 2024

Online: 29th February 2024

KEYWORDS

Paranormallik, paranormal epizod, demonologik personaj, motiv, sujet, mifologiya.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Shodiqul Hamroning “Qaqnus qanotidagi umr” qissasida paranormal epizodlar va ularning badiiy vazifasi, asarga singdirilgan mavzu va g‘oya, ayrim mifologik tushunchalar ya’ni vaqt, narsa, rang xususiyatlari qaqnus qanotidagi bir oilaning taqdiri misolida tahlilga tortilgan.

Jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida zamonaviy adabiyotning barcha adabiy janrlarida demonologik personaj, mifologik sujet, motiv, obrazlarning badiiy vazifasi hamda mifologik tushunchalarning obrazlantirilishiga doir asarlar yaratilmoqda. Shu bilan bir qatorda o‘zbek mifologiyasi ham asrlar davomida xalqimizning ijtimoiy-ruhiy hayotiga chuqur singib, hozirgi davr adabiyotimizda poetik tafakkurning muhim ajralmas qismi bo‘lib kelmoqda.

Shu mazmunda yozilgan asrlardan biri Shodiqul Hamroning “Qaqnus qanotidagi umr” qissasi o‘ziga xos ramziyligi ya’ni rang, narsa, vaqt tushunchalariga alohida ta’kid berilganligi bilan ajralib turadi hamda insonning o‘zligini yo‘qotishi qanday oqibatlariga olib kelishi qaqnus qanotidagi bir oila misolida tasvirlanadi.. Asar **“U mening to‘ng‘ich farzandim edi”** – jumalari bilan boshlanadi. Qissa qahramoni ilk bor farzandli bo‘lganida jismidagi **“mudroq tortgan tuyg‘ulari”** junbushga kelgan, tushkun va zerikarli hayoti turfa ranglarga burkangan, uzoq vaqtdan beri izlab yurgan muqaddas narsasini topgan edi.

Asarda obrazlarning xarakter xususiyati asarning bosh qahramon tilidan tasvirlanadi. Muallif ko‘rimsiz tilanchi chol obraziga alohida ahamiyat berib, uning zimmasiga katta vazifa yuklaydi. Zero, “Badiiy asar syujetida qahramonlarning ma’naviy, ichki dunyosini aks ettirish jarayonida ularning portretlarini chizish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yozuvchilar o‘z uslubiy mahoratiga ko‘ra qahramonlari portretini turli shaklda bayon qiladilar”. [5:60] Cholning tasvirida tushunarsiz holat bor: ba‘zan paydo bo‘lsa, ba‘zan yo‘qolib qoladi. Odatdagi tilanchilarga o‘xshamaydi, e’tiborni tortadigan eng muhim jihati shundaki: asar qahramonining hayot tarzi, farzandi tug‘ilgani, eng yaxshi ism izlayotgani, go‘dakning ruhiyatidagi buzilishlarni -hammasini tilanchi chol avvaldan biladi. Asar davomida cholning asar qahramonining hayotida va xayolida ro‘y berayotgan ishlar haqida qayerdan bilishi haqida aytib o‘tilmaydi. Shu o‘rinda savol tug‘iladi: aslida tilanchi chol kim edi va asarda qanday vazifa bajarmoqda?

Badiiy asarlarda obrazlar tasvirida ko‘z o‘ziga xos detal vazifasini bajaradi. Shu o‘rinda adabiyotshunos Bahodir Sarimsoqovning fikrlarini keltirib o‘tish o‘rinlidir. “...estetik ideal



ijodkorning mukammal go'zallik nuqtayi nazaridan yaratgan obrazlarida o'z ifodasini topadi. Bu asosan – to'g'ri mezon. Ammo shuni ham yoddan chiqarmaslik lozimki, mutlaqo go'zallik qamrab olinmagan, balki faqat estetikaning xunuklik kategoriyasi o'lchovlari doirasida yaratilgan obrazlar tashakkulida ham estetik ideal ishtirok etadi". [3:11] Asarda tilanchi cholga shunday ta'rif beriladi: "uning o'sha tuynukdan ko'zga elas-elas tashlanib turgan chuvakkina yuzi va zim-ziyo tun qo'ynida unutilib qoldirilgan bir juft shamdek yonib turgan ko'zlari juda qayg'uli va alamnok edi, bu og'ir manzara tilanchi cholning ko'pchilikka noayon qismat-u a'moli, sargashta umri haqida ko'p narsalarni unsiz so'zlayotgandi".[4: 10]

Farzand dunyoga kelar ekan ota-ona oldidagi eng muhim vazifalardan biri munosib va go'zal ma'noga ega bo'lgan ism qo'yish sanaladi. Zero, tilanchi cholning ta'biri bilan aytganda "Har bir ism o'zining ruhi va yuki bilan yaralgan. Ismda sir bor, uning qatida bolaning qismati yashirib qo'yilgan".[4: 22] Asar qahramoni ism tanlash jarayonida bir kitobga ko'zi tushadi va uning ism haqidagi fikrlarini tubdan o'zgartirib yuboradi. Ancha fikrlar va mulohazalardan so'ng farzandiga Muayyad deya ism qo'yadi. Bu ism "quvvatlangan, madad berilgan" kabi ma'nolarni anglatadi.

Asarda sariq kapalaklarning shom mahali kirib kelishi noxush voqealarning boshlanish debochasi bo'lib keladi. "Men unga ko'zim tushib, beixtiyor ko'nglimdan arvoh kapalak bo'lsa kerak, degan o'y kechdi-yu, birdan sergak tortdim. Men tabiatan irim-sirimlarga unchalik ishonmasdim. Lekin kapalaklar to'g'risidagi noxush taassurot bolaligimdan xotira bo'lib qolgan, oradan uzoq yillar o'tgan bo'lishiga qaramay, hali-hanuz bu o'ydan qutula olmasdim. Bolaligimda oqshom mahallari hovlimizda tez-tez allaqayoqdan sariq kapalaklar paydo bo'lib qolar, onam esa ularga ko'zi tushgan zahotiyoyq birdan tinchini yo'qotib, bezovta tortar, dam uyga kirib, dam tashqariga chiqib, o'zini qo'yarga joy topa olmas, pichirlab allaqanday duolarni o'qir va ora-sirada bizga bir qadar hayajonli vahimali ovozda: "Bular arvoh kapalaklar, tag'in tega ko'rmanglar",- deya qayta-qayta uqtirar edi". [4:28] Bu xotiralar asar qahramonining bolalik vahimalari edi va tabiatan irim-sirimlarga ishonmasa-da, yuragida allaqanday g'ashlikni keltirib chiqaradi. Farzandining kapalakni ko'rmasligini xohlaydi, ammo go'dak kapalakka astoydil qiziqish bildiradi.

"Sariq kapalaklar juda yuvosh, hech kimga zarari tegmas, ular hovlidagi gullarga qo'nib, uzoq vaqt uchib yurardi. Onam tun cho'kib, kapalaklar ko'zdan butkul g'oyib bo'lgunga qadar bizga noma'lum qo'rquv va sarosimadan qutula olmas, u ba'zan kapalaklarning katta-kichikligi, uchishiga qarab turib, bugun otamning yoki onamning arvohi keldi, deb o'z-o'ziga pichirlab qo'yardi. So'ng arvohlar umidvor bo'lyapti, deya albatta bo'g'irsoq yoki chalpak pishirib, qo'ni-qo'shnilariga tarqatardi. Onamning o'shanda o'ta g'alati tarzdagi qo'rquv to'la so'zlari bolalik xotiramga qattiq muhrlanib qolgan, shundan buyon nafaqat sariq kapalaklar, balki barcha kapalaklarga cho'chib allaqanday qo'rquv bilan qarar, ularga ko'zim tushgan zahotiyoyq o'z-o'zidan yuragimga vahima oralab qolardi". [4:29]Aynan shu tasvirlarda kishilarning noodatiy hodisalarga, tutash olam haqidagi tasavvurlarga, mifologik qarashlar va kutiladigan falokatlarning oldini olish uchun irim-sirimlarga (chalpak, bo'g'irsoq pishirish va boshqalarga tarqatish) ishonchi o'z aksini topadi.

Bu holatlar asarda paranormal epizodlar va ularning asarga singdirilgan vazifasini belgilaydi. "Paranormal" so'zining lug'aviy ma'nosi normal, ya'ni odatiy chegaradan tashqarida bo'lgan narsa, holat voqealar, karomatlardir. "Paranormal epizod" esa badiiy asarlarda



qo'llangan uchinchi olam bilan bog'liq bo'lgan noodatiy obrazlar, an'anaviy voqelikning buzilishi, tutash olamda sodir bo'ladigan hodisa va jarayonlardir. "Paranormal epizodlar"ga turli g'ayritabiiy voqealar, jin, ajina dev, alvasti, qorabosti, qora soya, iblis, shayton, ilon-qiz, it-odam, Xizr va hokozolar kiradi. Aslida barchasining tub ildizlari diniy, mifologik va folklor manbalariga borib taqaladi. Ushbu umumiy epizodlarni "paranormal epizodlar" deya nomlaymiz. Yuqorida sanab o'tilgan obrazlar folklorshunoslik va mifologiyada demonologik personajlar deb yuritilgan. Biz tadqiqot ishimizda faqat obrazlarni emas, balki sujet va noodatiy hodisalarni ham tahlilga tortganimiz va shu sababdan paranormal epizod deya nomlash bizningcha, o'rindir.

Azal-azaldan shom mahali mavhum hodisalar bo'lishi, aynan shu paytda jin chalib ketishi xalqimiz orasida tez-tez quloqqa chalinib turadi. Kapalak rangining sariq ekanligi ham yanada ta'sirchanlikni oshiradi. Shu o'rinda adabiyotshunos Umida Rasulovning "Ranglar muayyan narsa, hodisaga ishora berib, serqatlam ma'noni yuzaga keltiradi. Qahramonlarga ism tanlash ular siyratidagi nuqson yoxud fazilat tabiatidan kelib chiqadi" [2: 22]– fikrlarini keltirib o'tamiz.

Har bir go'dakning dunyoga kelishi, ota-ona-yu barcha yaqinlariga tengsiz quvonchlar olib keladi. Shu bois xalqimiz azal-azaldan farzand tug'ilganda bajariladigan amallarga alohida e'tibor bilan qaragan. Bobo-buvilarimizning bu boradagi asrlar davomida saqlab kelayotgan an'ana, urf-odat, udumlari milliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan. Masalan ajdodlarimiz yaratgan beshik, ism qo'yish marosimi yoki onalarimizning qadimiy allasi kishini hayratga solmay qo'ymaydi.

Bilamizki, chaqaloq tug'ilganida uning kindigi kesiladi va tana bilan birgalikda qolgan kindik qismi o'zi qurib, tanadan tushguncha kutiladi. Kindik tushgandan so'ng matoga o'ralib, bola yotadigan beshikning boshiga qo'yiladi. Bu holatda go'dak o'zini xotirjam his qilar ekan. Asarda esa kindik tug'ruqxonada axlatga tashlab yuboriladi va azaliy an'ananing buzilishi natijasida go'dakning ruhiyatida bezovtalik, buzilish paydo bo'lib, doimiy tarzda tinmasdan nimanidir qidiradi. Aslida kindik ramziy ma'no ifodalagan detal sanaladi. "Detal ko'pincha subektiv, ya'ni muallif nuqtayi nazaridan chiqib tanlanadi" [1:78] Bola qiyofasida o'zligini, asl qiyofasini, o'zining ota-bobolaridan meros qolgan qadriyatlarni topolmasdan xunob bo'layotgan insonlar taqdiri asarda yaqqol ochib beriladi. Asarda bolaning holati shunday tasvirlanadi: "...uning ko'ngliga bu o'y qayerdan keldiykan, shuncha kundan buyon ichikkancha izlayotgan bu narsa o'ziga shunchalik zarurligini, busiz hayot ham, dunyo ham o'zining qadr-qimmatini, mazmun-mohiyatini butkul yo'qotib, sariq chaqaga ham arzimaydigan matoga aylanib qolishini u go'dak aqli bilan qanday anglab yetdi ekan".

Ammo mustamlaka bo'lgan davrda ya'ni mustabid sho'ro tuzumi davrida milliy o'zligimizning ustunlaridan sanalgan ana shu qadriyat, an'analarimiz ham ko'r-ko'rona toptaldi, bu bebaho merosni xalqimizning xotirasidan o'chirib tashlashga urinishlar bo'ldi.

Bugun ko'pchilikning yodida bo'lsa kerak: o'tgan asrning 80-yillarida onalarimiz tomonidan ming yillardan buyon aytib kelinayotgan, go'dak qalbida milliy tuyg'ularni shakllantirishda tengsiz o'rin tutadigan alla ham "eskilik sarqiti" deya qattiq qoralangan edi. Vatanimizning mustaqillikka erishishi ana shunday bedodliklarga, xalqimizni o'zligidan mosuvo qilishga qaratilgan mash'um siyosatga batamom chek qo'ydi.



Xulosa qilib aytganda, ushbu asarda o'sha rutubatli davrda azaliy qadriyatlar, ilohiy borliqqa tutashtiruvchi rishtani topa olmay baxti zabun bo'lgan qahramonlarning ayanchli taqdiri sirli hodisalar va mifologik talqin bilan badiiy tarzda ochib berilgan.

References:

1. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик 1-жилд – Тошкент Фан. 1991.
2. Расулова Умида Йўлдош Қизи XX аср ўзбек қиссачилиги (Поэтик изланишлар ва тараққиёт тамойиллари. Филология фанлари доктори (Dsc) диссертацияси автореферати. Тошкент – 2020
3. Саримсоқов Б.И. Бадийлик асослари ва мезонлари, – Т.:2004
4. Шодиқул Ҳамроев Қақнус қанотидаги умр. Ўзбекистон НМИУ-2016
5. Холдаров Дилмуроджон Эркинжонович. Ҳозирги ўзбек қиссаларида бадий услуб муаммоси. (Шойим Бўтаев ва Назар Эшонқул қиссалари мисолида) Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) диссертацияси . Тошкент -2017